



## EPIK ASARLAR TAHLIL QILISH HAQIDA MULOHAZALAR

**Muhayyo Rahimqulova**

*Alisher Navoiy Nomidagi Toshkent davlat  
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi*  
[rahimkulovamuhhayo@mail.com](mailto:rahimkulovamuhhayo@mail.com)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15243904>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada epik asarlarni, hikoya va qissa misolida tahlil qilib yoritilgan. Tahlil jarayonida o‘quvchi o‘qigan asarini o‘rganadi, va kitobga bo‘lgan muhabbat hissi shakllanadi, haqiqiy kitobxonga aylanadi. Mazkur maqolada, epik asarlarni tahlil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, o‘quvchining unga badiiy jihatdan yondashish, asar mohiyatining kitobxonga tushunarli bo‘lishiga yordam beradi.

**Kalit so‘zlar:** Epik asarlar, hikoya, qissa, badiiy asarlar, epos, epik tahlil.

Badiiy adabiyot insoniyat hayotini charog‘on etishi, inson umriga nurofshonlik baxsh etib, ma‘naviy olamini shakllantirishi va yuksaltirishi, porloq kelajak uchun munosib to‘g‘ri yo‘lni tanlashga yordam berishi, kitobning insoniyat tomonidan yoritilgan eng buyuk kashfiyotdir. Adabiyot oddiy so‘zga hayotbaxsh qudrat ato etib, insoniyatning eng nozik tuyg‘ularini harakatlantiradi, ko‘ngil atalmish sirli va mo‘jizakor dunyoni taftish qiladi, olam va odamning mohiyati, ular o‘zaro munosabatlarining sabab va oqibatlarini, yashash mezonlari bilan tanishtiradi. Badiiy tahlil esa aynan muayyan adabiy asarning tabiatiga xos qirralarni tadqiq etish demakdir, adabiy tur va janr xususiyatlari badiiy asar tabiatiga xos asosiy jihatlarni belgilaydi. Badiiy asarni to‘g‘ri anglash ta’sirlanish fazilati adabiy asar o‘qish bilan o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi, asar mohiyatini anglab yetishi uchun har bir kishida estetik tayyorgarlik va ko‘nikma yetarli darajada bo‘lishi kerak. Epik asarlarda qahramonlar kechinmasini tasvirlash, obrazlar yoki hikoyachi kayfiyati ifodasini berishdan ko‘ra, shu tuyg‘ularning paydo bo‘lish jarayoni, ularning hayotiy-ruhiy ildizlari qayerda ekanini ko‘rsatishga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Epik asarlarni badiiy tahlil etish ham ko‘lamdor va ko‘p bosqichli kechimdir. Epik asarlarning eng asosiy belgisi: voqeabandlik, tasvirda tafsilotlar mavjudligi va obrazlar tizimiga egalikdir. Qaysi janrda bo‘lishiga qaramay, epik turga mansub asarlarda muayyan miqdorda qahramonlar bo‘ladi, ular ozdir-ko‘pdir voqealar qo‘ynida tasvirlanadi va ularning tabiatiga xos xususiyatlar hodisalar namoyon bo‘la boradi. Adabiy asarlarni tahlil qilishda ularning tur va janr xususiyatlari alohida ahamiyatga ega. Epik turdagi asarlarning tahlili xususida mulohaza yuritar ekanmiz. Shu o‘rinda Beliniskiyning adabiy tur va ularning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlari haqida quyidagi fikrlarni

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



aytish joiz: Uchala tur ham bitta asos-hayotdan oziqlansalarda, uchalasi ham bo‘lishi mumkin bo‘lgan olamni kashf etsada, ularning har birining o‘ziga xosligini ta’minlovchi predmeti ham bor. Eposniki-voqea, lirikaniki-ruhiy kechinma, dramani-harakatdir. Eposdagi qahramon-voqea, dramaning qahramoni-inson shaxsi, lirikaning qahramoni insonning ichki tuyg‘ularidir. Prof Q.Yo‘ldoshevning yozishicha, “Turli adabiy asarlar bilan ish yuritilganda tahlil usullari mutlaqo o‘zgarib ketmaydi, lekin o‘quvchining asarga yondashishi, munosabat tarzi o‘zgaradi.” Buning juda katta nazariy va amaliy ahamiyati bor. Zero, “asarlarni tur va janr xususiyatlarga ko‘ra o‘rganish san’atdan lazzatlanish, asarni uning badiiy butunligi hamda takrorlanmas mohiyatini his etish qobiliyatni rivojlantirishni nazarda tutadi”. Epik asarlarni tahlil qilishda ham o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, ularning adabiy tayyorgarligi asosiy o‘rinda turadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-6-sinflarda asosan eposning kichik janrlari: ertak, hikoya, qissalar, ayrim dostonlar o‘rganiladi. Yirik epik asarlarni o‘rganish esa yuqori sinflarda, shuningdek, akademik litseylar va oliy ta’lim muassasalarida o‘rganiladi. Epik asarda ham dramadagi singari makon va zamonda sodir bo‘lgan voqealar aks ettiriladi. Epik bayon nafaqat estetik, balki tashkiliy funksiya ham bajarishi kerakligi epik asarning o‘ziga xosligini ta’minlaydigan muhim jihatlardan biridir. Nutq egasi, so‘zlovchi yoki bayonchi go‘yo oldin yuz bergan voqeani hikoya qilib berayotganday bo‘ladi va ayni vaqtda yo‘l- yo‘lakay turli holatlarni, qahramonlar qiyofasini tasvirlaydi, ba’zan izohlaydi. Biror asarni o‘qish, uni tahlil qilish jarayonida olingan bilim o‘quvchini boshqa asarlarni o‘qishga, ulardan zavqlanishga undaydi, o‘quvchining o‘qilayotgan asar yuzasidan mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash salohiyati oshadi. O‘quv tahlili ikki bosqichda olib boriladi. Birinchi bosqichda o‘qituvchi o‘qilatiladigan asarni tahlil qiladi, savollar tuziladi. Ikkinchi bosqichda o‘qituvchi bilan o‘quvchilar hamkorligida darsda asar tahlil qilinadi. Epik asarning bir turi **hikoya-** bo‘lib bu badiiy adabiyotda kichik epik janr, hayot hodisalari ixcham ifoda etiladigan nasriy asar, 5-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan hikoya janriga oid asarlarni tahlil qilishga o‘quvchining tasavvur doirasi, fikrlash ko‘lami, yoshi, psixologik holatiga mos bo‘lishi maqsadga muvofiq.

**G.G‘ulomning “Mening o‘g‘rigina bolam”** asari voqealari quyidagi jumlar bilan boshlanadi. “Otamizning o‘lganiga ancha yil o‘tib ketdi. Bu yil- o‘n yettinchi yilning ko‘klamida onamizdan ham ajralib, shum yetim bo‘lib qoldik “Asarda shuni anglashimiz mumkinki asar qahramonining hayoti qiyinchiliklardan iboratligidan dalolat beradi. Hikoyani yozuvchi bolaligida guvoh bo‘lgan hayotiy



hodisa asos qilib olingan, avtobiografik xarakterga ega asardir. Xalqimiz boshiga ulkan kulfat urush asar qahromonlarini ham chetlab o‘tmadi. To‘rt yetimni boqishga harakat qilayotgan keksa Roqiyabibining o‘g‘riga qozonni o‘g‘irlashni aytishi, ammo o‘g‘ri qiynalsa-da, uni rad etishi ular orasidagi samimiylik, mehr-oqibatdan dalolat beradi. Kishilik jamiyatida insoniylik sifatlarining saqlanib qolishi o‘quvchiga yanada katta ruh bag‘ishlaydi. Hikoyani o‘rganish davomida o‘quvchilar Iymon, insof, diyonat, andisha, hamdardlik, qo‘rquv, nafsga qullik, yaxshilik qilish, mehr-oqibat, mehmondo‘stlik bag‘rikenglik, kabi bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan turli-tuman kechinmalar hissiyotlar olamidani o‘zlarini izlab ko‘radilar. Ushbu hikoya tahlil qilish jarayonida o‘quvchilarga o‘sha davr muhiti haqida ya‘ni I-Jahon urushi davriga to‘g‘ri kelgani uchun ma‘lumotlar berilishi lozim. Urush minglab oilalarning yagona boquvchilari ishga yaroqli erkaklarning urush orti hududlariga mardikor sifatida majburlab olib ketilgani, ayollar va bolalar tirikchiligi nihoyatda og‘ir ahvolga kelgani haqida eslatib o‘tiladi. Epik turga oid yana bir turi- qissa **Chingiz aytmatovning “Oq kema” qissasini** o‘quvchilar bilan tahlil qilib ko‘ramiz. -Eh Ona bug‘u, sen odamlarni bilmaysan,-bosh tebratdi cho‘tir Baymoq kampir.-Ular hayvonlargagina emas, hatto o‘z-o‘zlariga ham rahm-shafqat qilishmaydi. Bu yetimchalarni senga berardim, shunda mening so‘zlarim qanchalik rostligiga o‘zing guvoh bo‘larding, lekin odamlar baribir qo‘lingdan tortib olib, bu bolalarni o‘ldirishdi. Buncha g‘amning senga nima keragi bor. Men bolalarni uzoq o‘lkalarga olib ketaman, u yerdan bolalarni hech kim qidirib topolmaydi. Bolalarga rahm qil, donolarning donosi, ozod qil ularni. Men ularga sadoqatli ona bo‘layin. Bu parchada yetim bolalarni o‘lim changalidan qutqarib qolgan afsonaviy Shoxdor ona buguning mehribonliklari haqida fikr yuritiladi. Insonlar o‘rtasida o‘z manfaatlari uchun jigarlarini ham ayamasliklari to‘g‘risida Cho‘tir Baymoq kampir tilidan aytib o‘tiladi. Insoniyatning tabiatga bo‘lgan munosabati nadomat bilan tilga olinadi. Shoxdor ona bug‘u ikki yetim bolani boqib, voyaga yetkazadi va Bug‘ular avlodining shajarasi paydo bo‘lishiga sababchi bo‘ladi. Epik asar qancha bo‘lsa, tahlil ham o‘shancha o‘ziga xos xosliklarga ega bo‘laveradi. Epik asarda dramadagi singari makon zamonda sodir bo‘lgan voqealar aks ettiriladi. Epik asarlarni tahlili uning zamiridagi hayotiy, badiiy mantiqni to‘laroq ochish va matnning estetik jozibasini tuyish imkonini beradi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, epik asarlarni tahlil qilish ko‘nikmasini o‘quvchilarda shakillantirish orqali ularning asar mohiyatini yanada chuqurroq, yanada teranroq anglashlariga, shu bilan birgalikda, badiiy asar tahlilini amalga

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



oshirish orqali o‘quvchilar tafakkurida badiiy adabiyotga bo‘lgan qiziqishning yanada yuksalishiga yordam berish mumkin. o‘quvchilarning tafakkurini o‘stirish, so‘z boyligini oshirish, estetik didi, ma‘naviyatini yuksaltirishda o‘rganilayotgan hikoyalarning badiiy tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Yana shuni aytish mumkinki o‘quvchida obrazlilik olamini o‘zgacha estetik nazar bilan ko‘rish mumkinligini, turli janrlardagi asarlarni ajrata olishga yordam beradi.

### Foydalangan adabiyotlar:

1. Козокбой Юлдош, Мухайе Юлдош. Бадий тахлил асослари. Тошкент: 2016.
2. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Т.: Akademnashr, 2010.
3. Qozoqboy Yo‘ldoshev. Yoniq so‘z . -Toshkent: 2006.
4. Erkin Xudayberdiyev, Adabiyotshunoslikka kirish. -Toshkent: 2008.